

V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati katta va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol tovarlari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Xizmatlar sohasida 28,4 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,9 % ni tashkil etdi. Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

**Xizmatlar sohasiga taaluqli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 2025-yil 1-yanvar holatiga



Savdo-13 601



**Boshqa turdagi
xizmatlar-9 238**



**Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar-3 013**



Tashish va saqlash-928




Sog'liqni saqlash-1 001



Axborot va aloqa-629

2025-yilning 1-yanvar holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2025-yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar 27,9 % tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etmoqda.


Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 1,3 % ga teng bo'ldi.

2024-yilning yanvar-dekabrida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 58 875,7 mlrd so'mni tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan o'sish 114,1 foizni tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi, yashash va ovqatlanish xizmatlari (33,4 %), savdo xizmatlari (18,2 %), transport xizmatlar (16,0 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,3 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmati (3,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, % da



**Yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**

	<i>faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2024-y.</i>	<i>2023-y.</i>		

Jami xizmatlar	28 410	58 875,7	46 593,0	114,1	100,0
-----------------------	---------------	-----------------	-----------------	--------------	--------------

*shu jumladan xizmat
turlari bo'yicha:*

aloqa va axborotlashtirish xizmati	629	2 013,4	1 500,9	124,8	3,4
--	-----	---------	---------	-------	-----

moliyaviy xizmatlar	168	5 505,9	4 559,6	115,2	9,4
---------------------	-----	---------	---------	-------	-----

transport xizmati	928	9 865,5	7 476,9	117,9	16,8
-------------------	-----	---------	---------	-------	------

<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	624	8 723,4	6 898,5	115,1	14,8
---	-----	---------	---------	-------	------

yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 013	19 696,0	15 564,5	111,1	33,5
--------------------------------------	-------	----------	----------	-------	------

savdo xizmatlari	13 601	10 590,6	8 474,0	117,7	18,0
------------------	--------	----------	---------	-------	------

ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	746	1 020,6	809,2	113,1	1,7
---	-----	---------	-------	-------	-----


davomi

	<i>faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2024-y.</i>	<i>2023-y.</i>		
ta'lim sohasidagi xizmatlar	3 178	2 343,5	1 994,7	109,4	4,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 001	1 106,0	880,0	113,4	1,9
ijara xizmatlari	90	1 077,7	814,3	110,0	1,8
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	162	1 405,5	1 120,0	112,2	2,4
boshqa shaxsiy xizmatlar	340	1 771,3	1 430,3	110,0	3,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	237	536,5	433,6	102,9	0,9
boshqa turdagi xizmatlar	4 317	1 943,2	1 535,0	108,2	3,3

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush yashash va ovqatlanish (jami xizmatlarning 33,5 foizi) va savdo (18,0 foizi) xizmatlarga to'g'ri keldi.


Shuningdek, sog'liqni saqlash xizmatlar (113,4 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (124,8 foiz) o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, (2024-yil yanvar-dekabr, jamiga nisbatan % da)



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi yashash va ovqatlanish xizmatlari 33,5 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. yashash va ovqatlanish oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, yashash va ovqatlanish xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish xizmatlari tarkibi, % da



■ Yashash bo'yicha xizmatlar

■ Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

2024-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm

Transport xizmatlari

9 865,5 mlrd so'm



Moliyaviy xizmatlar

5 505,9 mlrd so'm

Savdo xizmatlari

10 590,6 mlrd so'm




Boshqa xizmatlar

1 943,2 mlrd so'm

Aloqa va axborotlashtirish
xizmatlari

2 013,4 mlrd so'm




Ta'lim sohasi
xizmatlari

2 343,5 mlrd so'm

Shaxsiy xizmatlar

1 771,3 mlrd so'm



Kompyuterlarni ta'mirlash

1 405,5 mlrd so'm bo'yicha xizmatlar

Yashash va ovqatlanish
xizmatlari

19 696,0 mlrd so'm




Ko'chmas mulk bilan
bog'liq xizmatlar

1 020,6 mlrd so'm

2024-yilning yanvar-dekabr oylari davomida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari eng katta ulushni egallagan bo'lib, 19 696,0 mlrd so'mni tashkil etgan, (2023-yilda 15 564,5 mlrd so'm) nisbatan 111,1 foizni tashkil etgan, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlar 5 505,9 mlrd so'm (2023-yilda 4 559,6 mlrd so'm), savdo xizmatlari 10 590,6 mlrd so'm (2023-yilda 8 474,0 mlrd so'm) va aloqa va axborotlashtirish xizmati 2 013,4 mlrd so'm (2023-yilda 1 500,9 mlrd so'm) hissalariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da
(2024-yil yanvar-dekabr oylari uchun)




Shu bilan birga, eng yuqori o'sish Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (24,8 %) va Transport xizmatlari (17,9 %) qayd etildi.

Respublikamizda kredit siyosati bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o‘shishiga imkoniyat yaratdi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o‘shishi 15,2 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatish, jumladan “raqamli” banklar va chakana xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan bank bo‘linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatish, to‘lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 5 505,9 mlrd so‘mga teng bo‘lib, 2023-yilga nisbatan o‘shish sur‘ati esa 115,2 % ni tashkil etdi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da



**2024-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish**

	<i>Hajmi*</i> <i>mlrd so'm</i>	<i>O'sish sur'ati,</i> <i>% da</i>	<i>Aholi jon</i> <i>boshiga*</i> <i>ming so'mda</i>	<i>O'sish</i> <i>sur'ati,</i> <i>% da</i>
Samarqand viloyati	58 875,7	114,1	13 843,3	111,7
Samarqand sh.	16 452,5	117,1	27 862,0	114,8
Kattaqo'rg'on sh.	905,8	125,4	9 494,8	123,8
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1 196,0	113,2	6 826,3	110,6
Bulung'ur	975,1	112,4	4 770,4	109,8
Jomboy	1 515,5	114,8	7 901,7	112,0
Ishtixon	1 263,6	116,9	4 527,5	114,4
Kattaqo'rg'on	1 291,9	109,9	4 352,9	107,7
Qo'shrabot	690,6	112,4	4 826,3	110,3
Narpay	1 140,7	114,4	4 970,4	112,3
Payariq	1 335,4	123,2	4 827,8	120,3
Pastdarg'om	2 281,7	118,8	5 885,2	116,1
Paxtachi	750,9	112,4	4 895,2	110,7
Samarqand	2 571,4	117,6	9 326,9	115,2
Nurobod	692,1	116,0	4 214,7	113,7
Urgut	2 284,8	117,4	4 037,5	114,6
Toyloq	1 624,5	112,3	7 262,0	109,6

**) Yashrin iqtisodiyotni qo'shgan holda dastlabki ma'lumot*

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Kattaqo'rg'on shahriga (125,4 %) va Payariq tumani (123,4 %) ga to'g'ri keldi.


Samarqand viloyati bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi Samarqand shahri (27,9 foiz), Samarqand tumani (4,4 foiz), Urgut tumani (3,9 foiz) va Pastdarg'om (3,9 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng past o'sish sur'atlari Kattaqo'rg'on tumani (103,9 %) hamda Toyloq tumanlarida (112,3 %) kuzatildi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 13 843,3 ming so'mni tashkil qildi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 111,1 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Samarqand shahrida 27 862,0 ming so'mdan Kattaqo'rg'on tumanida 9 494,8 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati
(2024-yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida 27 832,0 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,8 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Payariq (120,3 %) tumanida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi, Urgut (3 221,4 ming so'm), Nurobod (3 388,2 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

**2024-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
savdo xizmatlari hajmi**




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida (3 585,2 mlrd so'm), Samarqand (772,2 mlrd so'm) va Pastdarg'om (640,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Nurobod (169,1 mlrd so'm) tumanida qayd etildi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 9 403,7 mlrd so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,3 % ni tashkil etdi.


2024-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2023-yilga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Samarqand shahrida (137,0 %) va Toyloq tumanida (139,9 %) kuzatildi.

Eng kam o'sish sur'ati Urgut tumanida (85,5 %) qayd etildi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi, % da




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o‘rtasida Oqdaryo tumani (34,5 %) va Jomboy (32,3 %) tumani egallaydi.

Shahar va tumanlar o‘rtasida eng kam ulush urgut (20,1 %), Samarqand sh (21,8 %) va Nurobot (24,4 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 8 938,4 mlrd so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 119,6 % ni tashkil etdi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha transport xizmatlarining o‘sish sur‘ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand shahrida (3 196,5 mlrd so‘m) va Samarqand tumanida (665,2 mlrd so‘m) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng kichik ko‘rsatkich Nurobot tumanida (177,0 mlrd so‘m) qayd etildi.